

O'ZBEKISTONDA PAXTANING EKSPORTI

Muhammadaminov Sarvar Nodirbek o'g'li
Axatova Shohsanam Abdunosir qizi
Murodullayev Isfandiyor Botirjon o'g'li

Annotatsiya: *O'zbekiston Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, o'zbek paxtasining joriy mavsumdag'i asosiy xaridchlari yana Bangladesh (29 foiz), Xitoy (26 foiz), Janubiy Koreya (7 foiz) va Eron (5 foiz) bo'ladi. “So'nggi yillardagi o'rtacha hosildorlikdan kelib chiqib, 2023-yilgi paxta hosilidan tola tayyorlash hajmi 1 million tonnaga yaqin bo'ladi”*

Kalit so'zlar: *Paxta, iqtisodiy aloqa, xomashyo, eksport, koalitsiya, tendentsiya, hosil, amaliyot, modernizatsiya, qiymat, hosildorlik.*

O'zbekiston 2023 yilda 78,87 million AQSh dollari miqdorda paxta tolasini eksport qilgan. O'zbekistonning 2023 yillardagi paxta tolsi eksporti 65,35 foizga qisqarib, 78,87 million AQSh dollarini tashkil qilgan. 2019 yilda respublika 227,61 million AQSh dollari miqdorida paxta tolsi eksport qilingandi. Paxta eksporti 2020 yil davomida faqat sentyabr oyida 2022 yilda qilingan nisbatan baland bo'lgan. Eksport hajmi kamayishi paxta xomashyosidan yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksportga yo'naltirish ko'zlanayotgani bilan izohlangan. «Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish choratadbirlari to'g'risida»gi 2020 yilning 6 martida qabul qilingan prezident farmoniga binoan, respublikada paxta xomashyosi ishlab chiqarish va majburiy sotish rejisi, uning narxini davlat tomonidan belgilash amaliyoti bekor qilingan.



O'zbekiston so'nggi yillarda paxta eksportini yildan yilga kamaytirmoqda. Xususan, 2016 yilda 416 ming tonna, 2017 yilda 278,9 ming tonna, 2018 yilda

esa 115,6 ming tonna paxta tolasi eksport qilingan. Investitsiyalar va tashqi savdo vaziri Sardor Umurzoqov 2019 yilda Yaponiyaning Nikkei Asian Review nashriga bergan intervyusida paxta tolasini eksport qilishni to‘xtatish haqida aytib o‘tgandi. U o‘sanda 2025 yilga borib O‘zbekiston yiliga 8 milliard AQSh dollari miqdordagi to‘qimachilik maxsulotlarini eksport qilishni rejalashtirganini aytib o‘tgandi. Avvalroq, Cotton Campaign xalqaro koalitsiyasi O‘zbekiston paxta dalalarida 2020 yilgi hosilni yig‘ib olishda majburiy mehnatga barham berishda kuzatilgan sezilarli olg‘a siljishlarni e’tirof etgandi.

O‘ZBEKISTONDA PAXTA YETISHTIRISH

Mamlakat xalq xo‘jaligida muhim ahamiyatga ega. Bu O‘zbekistonning asosiy mahsuloti bo‘lib, 2006-yilda eksportining 17% ni tashkil qiladi Yiliga 1 million tonnaga yaqin paxta yetishtirish (jahon ishlab chiqarishining 4–5%) va eksporti 700-800 ming tonna (jahon eksportining 10%) bilan O‘zbekiston paxta yetishtirish bo‘yicha 8-o‘rinni va paxta eksporti bo‘yicha 11-o‘rinni egallaydi. O‘zbekistonda paxtaning ikkinchi nomi "oq oltin".

Sanoat milliy darajada davlat tomonidan nazorat qilinadi. Har yili paxta terimiga ikki millionga yaqin kishi jalgan. Bu shaxslarning aksariyati paxta dalalarida mehnatga majbur bo‘lib, oz yoki umuman maosh olmagan. Iqtisodiyot bo‘yicha dunyoda 82-o‘rinni egallagan mamlakatda O‘zbekiston uchun paxtaning o‘rni juda muhim. Ammo uning ishlab chiqarilishi yillar davomida kamaydi. Paxta yetishtirish 1988-yilda 8000 toyga yetgan bo‘lsa, 2012-yilga kelib 4500 toy (1 million tonna) atrofida bo‘ldi. Ushbu pasayish tendentsiyasining sababi asosiy talab bo‘lgan oziq-ovqat ekinlarini etishtirishga berilgan ustuvorlik bilan bog‘liq. Uning paxtasi asosan Xitoy, Bangladesh, Koreya va Rossiyaga eksport qilinadi. O‘zbekistonda paxtani qayta ishlash tarmoqlari va tegirmonlarini ko‘paytirish orqali ko‘plab paxta to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirishga harakat boshlandi. Inson huquqlari bo‘yicha hisobotlar mamlakatdagi mehnat sharoitlari, bolalar mehnati va majburiy mehnatni oshkor qilganidan so‘ng, ko‘plab jahon kompaniyalari paxtaga boykot e’lon qilgani O‘zbekiston paxta sanoatiga ham ta’sir ko‘rsatdi.



O‘zbekiston 2015/16-yilgi mavsumda jahon paxta bozorida o‘zining 7 foizlik ulushini saqlab qoladi, ya’ni 500 ming tonna paxta tolasini eksport qiladi.

Paxta bo‘yicha xalqaro maslahat qo‘mitasi (ICAC) ma’lumotlariga ko‘ra, tashqi bozorga paxta tolasini yetkazib berish bo‘yicha AQSh (29 foiz), Hindiston (16 foiz) va Pokiston (10 foiz) yetakchilikni saqlab qolmoqda. 2015/16-yilgi mavsumda jahon bo‘ylab paxta tolsi ishlab chiqarish hajmi 9,2 foizga — 23,9 million tonnagacha pasayadi, uning iste’moli esa 2 foizga — 25 million tonnagacha oshadi.

ICAC’ning dastlabki baholashlariga ko‘ra, paxta ishlab chiqaruvchi asosiy mamlakat — Xitoyda talabning pasayishi va ayni vaqtda Braziliya, Hindiston va O‘zbekistonda paxta hosilining yuqori bo‘lishi munosabati bilan, 2015/16-yilgi mavsumda bir funt (450 gramm) paxtaning xalqaro narxi 67-68 sent miqdorida saqlanib qoladi.

“Hukumat paxta tolasini qayta ishlash bo‘yicha yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish va mavjud quvvatlarni oshirish hisobiga eksportni qisqartirish siyosatini maqsadli ravishda davom ettirmoqda”, — dedi konferensiya ochilishida O‘zbekiston bosh vaziri Shavkat Mirziyoyev. Uning so‘zlariga ko‘ra, “samarali logistika tizimi hamda optimal yo‘nalish va koridorlarning tanlanishi o‘zbek paxta tolasining o‘z vaqtida barcha iste’molchilarga yetib borishini ta’minlaydi”.

O‘zbekiston Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, o‘zbek paxtasining joriy mavsumdagi asosiy xaridorlari yana Bangladesh (29 foiz), Xitoy (26 foiz), Janubiy Koreya (7 foiz) va Eron (5 foiz) bo‘ladi. “So‘nggi yillardagi o‘rtacha hosildorlikdan kelib chiqib, 2023-yilgi paxta hosilidan tola tayyorlash hajmi 1 million tonnaga yaqin bo‘ladi”

“O‘zbekyengilsanoat” kompaniyasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2015—2020-yillarda mamlakat yengil sanoat sohasi modernizatsiyasi uchun 1 milliard dollarga yaqin mablag‘ yo‘naltiriladi. Dastur paxta tolasini mahalliy darajada qayta ishlashni joriy yildagi 44 foizdan 2023-yilda 70 foizga olib chiqishni, o‘z navbatida, tekstil mahsulotlari eksporti hajmini hozirgi 800 million dollardan 1,5 milliard dollarga ko‘tarishni nazarda tutadi.

O‘zbekistonda har yili 3,5 million tonnaga yaqin paxta xomashyosi va 1—1,2 million tonna paxta tolsi tayyorlanadi. So‘nggi 10 yil ichida paxta tolasining ichki iste’moli mamlakatda 15 foizdan 40 foizgacha oshdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmadaliyeva M. O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING INNOVATSION FAOLIYATI VA MUAMMOLARI //*Евразийский журнал технологий и инноваций.* – 2023. – Т. 1. – №. 5 Part 2. – С. 73-77.
2. Axmadaliyeva, Mohigul. "O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING INNOVATSION FAOLIYATI VA MUAMMOLARI." *Евразийский журнал технологий и инноваций* 1.5 Part 2 (2023): 73-77.
3. Axmadaliyeva, M. (2023). O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING INNOVATSION FAOLIYATI VA MUAMMOLARI. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(5 Part 2), 73-77.
4. Kamolovich B. E. ZAMONAVIY DAVRDA PAXTA SANOATIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QOLLASH //*Научный Фокус.* – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 767-769.
5. Kamolovich, Boymuratov Erkin. "ZAMONAVIY DAVRDA PAXTA SANOATIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QOLLASH." *Научный Фокус* 1.2 (2023): 767-769.
6. Kamolovich, B. E. (2023). ZAMONAVIY DAVRDA PAXTA SANOATIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QOLLASH. *Научный Фокус*, 1(2), 767-769.